XALQ DEPUTATLARI NUROTA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 5-sentabr VI-76-110-5-74-K/24 Nurota tumani

Nurota tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-son qarori bilan tasdiqlangan “Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq hamda Nurota tumani hokimining 2024-yil 15-martdagi 27-5-74-F/24-sonli farmoyishiga asosan tuzilgan “Nurota tumanining ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalariga ko‘ra chiqish bo‘yicha tuzilgan tuman komissiyasi”ning 2024-yil 31-iyuldagi 03-03/2551-sonli yig‘ilish bayoniga asosan Respublika aerogeodeziya markazi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limi mutaxassislari tomonidan Nurota tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari ko‘ra tumanning jami maydoni 588292,76 gektarni, tumanning jami perimetri 1209756,05 metr ekanligi aniqlangan.

Shundan, shahar, shaharcha va qishloqlar kesimida:

Nurota shahrining jami maydoni 2149,91 gektarni, perimetri 31725,27 metr ekanligi;

Yangibino qishlog‘ining jami maydoni 33610,88 gektarni, perimetri 115628,02 metr ekanligi;

Temirqovuq qishlog‘ining jami maydoni 144565,89 gektarni, perimetri 170616,81 metr ekanligi;

Qizilcha qishlog‘ining jami maydoni 162302,30 gektarni, perimetri 256396,75 metr ekanligi;

Sentob qishlog‘ining jami maydoni 42709,14 gektarni, perimetri 114903,00 metr ekanligi;

Nurota qishlog‘ining jami maydoni 59877,51 gektarni, perimetri 121172,64 metr ekanligi;

Dehibaland qishlog‘ining jami maydoni 59690,16 gektarni, perimetri144061,07 metr ekanligi;

Chuya qishlog‘ining jami maydoni 40069,66 gektarni, perimetri 127053,52 metr ekanligi;

Gum qishlog‘ining jami maydoni 43317,31 gektarni, perimetri 128194,49 metr ekanligi aniqlangan.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 28-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi O‘RQ-635-son qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23- apreldagi 299-son qarori bilan tasdiqlangan “Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq, Nurota tumani hokimining 2024-yil 15-martdagi 27-5-74-F/24-sonli

farmoyishiga asosan tuzilgan tuman komissiyasining 2024-yil 31-iyuldagi 03-03/2551-sonli yig‘ilish bayoniga, “Mahaliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6-, 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Nurota tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-son qarori bilan tasdiqlangan “Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi nizomga muvofiq hamda Nurota tumani hokimining 2024-yil 15-martdagi 27-5-74-F/24-sonli farmoyishiga asosan tuzilgan tuman komissiyasining 2024-yil 31-iyuldagi 03-03/2551-sonli yig‘ilish bayoni tasdiqlansin.

2.Nurota tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari bo‘yicha shahar, shaharcha va qishloqlarning chegaralari perimetri va maydonlari haqidagi ma’lumot 1-ilovaga;

tumanning ma’muriy-hududiy birliklar chegaralari kartografik chizmasi (sxema) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman hokimligi matbuot kotibi (L.Mansurov)ga xalq deputatlari Nurota tumani Kengashining mazkur qarori mahalliy “Nurnoma” gazetasida chop etilishi tavsiya etilsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirish topshirilsin.

4.Ushbu qarorni tasdiqlash Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashidan so‘ralsin.

5.Qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Nurota tumani Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Zokirov hamda tuman hokimining qurilish kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya hamda ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari O.Oxunjonovlarning zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi FAYZIYEV AZAMAT ISMATOVICH

Xalq deputatlari Nurota tumani
Kengashining
2024-yil 5-sentabrdagi
VI-76-110-5-74-K/24 -son qaroriga
1-ilova


Nurota tumanining ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari bo‘yicha shahar, shaharcha va qishloqlarning chegaralari perimetri va maydonlari haqida

MA’LUMOT

№	Ma’muriy-hududiy birliklar nomi	Maydoni (ga)	Chegara uzunligi (metr)
1	Nurota shahri	2149,91	31725,27
2	Yangibino qishlog‘i	33610,88	115628,02
3	Temirqovuq qishlog‘i	144565,89	170616,81
4	Qizilcha qishlog‘i	162302,30	256396,75
5	Sentob qishlog‘i	42709,14	114903,00
6	Nurota qishlog‘i	59877,51	121172,64
7	Dehibaland qishlog‘i	59690,16	144055,75
8	Chuya qishlog‘i	40069,66	127053,52
9	Gum qishlog‘i	43317,31	128194,49
	Jami	**588292,76**	**1209756,05**

Xalq deputatlari Nurota tumani
Kengashining
2024-yil 5-sentabrdagi
VI-76-110-5-74-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Navoiy viloyati Nurota tumani shahar
qishloqlarning chegaralarini
belgilash ishlari bo‘yicha
SXEMASI



CHegaradosh yerlari izohnomasi
A dan B gacha Jizzax viloyati yerlari
B dan D gacha Samarqand viloyati yerlari
D dan E gacha Xatirchi tumani yerlari
E dan F gacha Navbahor tumani yerlari
F dan G gacha Gazgon shahri yerlari
G dan A gacha Kanimex tumani yerlari

Shartli belgilar
Viloyat chegarasi
Tumanlar chegarasi
Shahar chegarasi
Qishloqlar chegaralari